

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01.**

**RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY
KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

MIRXAYDAROVA NODIRA XAITBAYEVNA

**O'ZBEKCHA "MA'NAVIYAT" VA RUSCHA "ДУХОВНОСТЬ"
ARXISEMALI LEKSEMALARNING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Mirxaydarova Nodira Xaitbayevna

O‘zbekcha “ma’naviyat” va ruscha “духовность” arxisemali leksemalarning
chog‘ishtirma tadqiqi..... 3

Мирхайдарова Нодира Хайтбаевна

Исследование лексем узбекской “ма’навият” и русской “духовность”3

Mirkhaydarova Nodira Khaitbaevna

A study of archixemous lexemas in uzbek “ma’naviyat” and russian “духовность”
.....3

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.122019.Fil.19.01.**

**RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY
KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

MIRXAYDAROVA NODIRA XAITBAYEVNA

**O'ZBEKCHA "MA'NAVIYAT" VA RUSCHA "ДУХОВНОСТЬ"
ARXISEMALI LEKSEMALARNING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/Fil 1820 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Guliston davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsuull.uz) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Normamatov Sultonbek Ermamatovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xolmanova Zulkumor Turdiyevna
filologiya fanlari doktori, professor

Kadirova Barno Raimovna
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019. Fil. 19.01. raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2024-yil _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44 fax: (99871) 281-42-44, e-mail:monitoring-uni.uz).

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44 fax: (99871) 281-42-44.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «_____» _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil «_____» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

Sh.S.Sirojiddinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, akademik

Q.U.Pardayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

S.X.Muhamedova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori dissertatsiyasi (PhD) annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida til birliklarini tizim sifatida o‘rganish, leksemalar semantikasini lisoniy munosabatlar asosida yoritish masalalari tarixiy leksikologiyaning tahlil obyekti va predmeti bo‘lib kelgan, o‘z navbatida zamonaviy lug‘at sathi tadqiqining asosini tashkil etadi. Leksik birliklarning muayyan arxisemalar asosida birlashuvi tushunchalarning turli semalar orqali ifodalanish xususiyatlarini aks ettiradi. Tadqiqotlarda ma’naviyat, qadriyat, axloq masalalariga, leksik birliklarda ifodalanish xususiyatlariga, xalqning baho va munosabatini yoritishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ma’naviyat kishilik jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyasini harakatga keltiruvchi asosiy kuch bo‘lib, uning lisoniy ifodasi, keljak avlodni vatanparvarlik, xalqparvalik ruhida tarbiyalashdagi qimmatini namoyon etadigan lingvistik omillarni tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida ma’naviyat, qadriyat, dunyoqarashni ifodalovchi til birliklari leksik-semantik, lingvokulturologik, aksiolingvistik aspektida tahlil qilingan. Ma’naviy-axloqiy qadriyatlar bilan bog‘liq tushunchalarning ifodalanishi muayyan tilda, qiyosiy va chog‘ishtirma aspektida tадqiqotlar doirasida tahlil qilingan. Har bir millatning o‘ziga xos hamda umummilliyl ma’naviy-axloqiy qadriyatlar tizimiga ega ekanligini ko‘rsatish, ma’naviyatga oid tushunchalarni ifodalovchi leksik birliklarni semantik yondashuv asosida tahlil qilish jamiyatning madaniy taraqqiyot tarixini yoritishda va istiqbol yo‘nalishlarini belgilashda muhim o‘rin tutadi.

“Milliy-ma’naviy o‘zlikka ega bo‘lish, madaniy merosni o‘zlashtirish uchun kurash yalpi ijtimoiy harakat”¹ga aylangan bugungi sharoitda mamlakatimizda ma’naviyat, ma’rifat masalalari davlat darajasiga ko‘tarildi. Darhaqiqat, XX asr boshlarida jadidchilik harakati namoyandalar ma’naviy, axloqiy tarbiya, milliy g‘urur tushunchalariga “hayot-mamot masalasi” sifatida yondashishgan. Til va madaniyat munosabati, qadriyatlar tahliliga oid izlanishlarda o‘zbek xalqining boy madaniy merosga ega ekanligi, ma’naviy-axloqiy qarashlarning xalq og‘zaki ijodi hamda yozma manbalarda aks etgani ta’kidlangan. O‘zbek tilidagi ma’naviyat arxisemali leksik birliklarni to‘plash, tizimlashtirish, xalqaro muloqot vositasi mavqeyiga ega bo‘lgan metatilning leksik birliklari bilan chog‘ishtirish o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirishga inson ma’naviyatini yorituvchi leksik ifodalarni tizimlashtirishga, ma’naviy tushunchalarga oid lingvistik bazani shakllantirishga xizmat qiladi. O‘zbek tilidagi “ma’naviyat” arxisemali leksemalarni tizimlashtirish, chog‘ishtirma aspektida tipologik jihatdan tadqiq etish, umumiyl hamda til sohiblari uchun xos belgilarni ko‘rsatish zarurati tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-sон “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-sон “O‘zbek tilining

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони // Халқ сўзи. – Тошкент, 2017 йил, 8 февраль. –№28 (6722).

davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari; 2018-yil 18-maydagi PQ-376-son “Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o‘zbek tiliga hamda o‘zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’oriy-huquqiy hujjalarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darjasи. Jahon tilshunosligida “ma’naviyat” arxisemali leksemalarning semantik xususiyatlari doir ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, M.Drobjev, E.Stepanova, S.Guzenina, T.Гаак, A.Xolmanskiy, L.Korsakovalarning² izlanishlarida ma’naviyatning talqini va tavsifi keltirilgan, diniy e’tiqodga munosabati, madaniy tajriba, mentalitet, kishilik jamiyatini tadqiq qilishning eng yuqori darjasи sifatidagi xususiyatlari tahlil qilingan³. Rus tadqiqotchisi I.V.Kalugina «Национальный корпус русского языка» materialidan foydalaniб «духовность» leksemasi, uning qator ma’nolarini izohlagan⁴.

O‘zbek olimlari tomonidan “ma’naviyat” tushunchasining nazariy asoslari yoritilgan⁵. Ma’naviyat, ruhiyat masalalariga tafakkurni rivojlantirish omili sifatida yondashilgan⁶. J.Mamashukurov o‘zbek tilining ma’naviy tushunchalarni ifodalash va g‘oyalarni aks ettirish imkoniyatlarini tahlil qilgan⁷. G. Tojiyeva mustaqillik

² Дробжев М. Духовность личности как главная составляющая системы непрерывного образования // Гаудеамус, 2006. Т.1. –№ 9. – С.71-78; Степанова Е. Новая духовность и старые религии // Религиоведение. – М., 2011. –№1. – С.127-134; Гузенина С. Державность и народный патриотизм как фундаментальные составляющие российского менталитета // Вестник Тамбовского университета. Серия «Гуманитарные науки». 2012. –№2 (106). – С.28-33; Гаак Т., Коннова С. Рассуждения о духовности: филологический аспект // Вестник ОГУ. –№ 1. 2012. – С.173-182; Холманик А. Реальная духовность [Электронный ресурс] // Мир науки. 2014. –№2 (4). URL: <https://mirnauki.com/PDF/11FILSMN214.pdf> (дата обращения: 01.06.2021); Корсакова Л. Духовность в христианско-универсальном аспекте православной культуры [Электронный ресурс]. URL: <https://nauchtrud.com/5698/2020082809182354688> (дата обращения: 01.06.2021).

³ Дробжев М. Духовность личности как главная составляющая системы непрерывного образования // Гаудеамус. 2006. Т.1. –№ 9. – С.71-78.

⁴ Калугина И.В. Бытование лексемы «духовность» в русском языке //Филологические науки. Вопросы теории и практики, 2021.

⁵ Азизхўжаев А.А. Давлатчилик ва маънавият. – Тошкент: Шарқ, 1997. – 240 б.; Имомназаров М., Эшмухamedova M. Milliy maъnaviyatimiz асослари. – Тошкент: Ислом Университети, 2000. – 360 б.; Эркаев А. Маънавият ва тараққиёт модели. Монография. – Тошкент: Маънавият, 2005. – 192 б.; Қаршибоев М. Бунёдкор халқ гояси. –Тошкент: Маънавият, 2001. – 270 б.

⁶ Махмудов Н. Миллий мағкура ва она тили // Халқ сўзи. – Тошкент, 2000 йил 13 июнь.

⁷ Мамашукуроў Ж. Ўзбек тилининг давлат тили сифатида ривожланишининг ижтимоий-сиёсий ва маънавий асослари. Фалс. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – 24 б; Тўраҳожаева А. Мустақиллик

yillarida faol qo'llangan ma'naviy-ma'rifiy tushunchalarni ifodalovchi leksik birliklarni jamlab, semantik xususiyatlarini tahlil qilgan⁸, til va ma'naviyat mushtarakaligini ilmiy jihatdan asoslagan⁹. M.Axmedova o'zbek va ingлиз tillaridagi "ma'naviyat"/"spirituality" umumiy semali atov birliklari tipologiyasini o'rgangan¹⁰. F.Yuldashev "ma'naviyat" va "mafcura" leksemalarning semantik xususiyatlarini qiyosan tahlil qilgan¹¹. "Ma'naviyat" semali tushunchalarning mazmun-mohiyati ayrim lug'atlarda izohlangan¹².

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiytadqiqot ishlari rejalar bilan bog'liqligi. Tadqiqot Guliston davlat universitetining ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq "Uzluksiz ta'limda o'zbek tili va adabiyotini o'qitishdagi dolzarb muammolar" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek tilidagi "ma'naviyat" va rus tilidagi "духовность" arxisemali leksemalarni tizimlashtirish, tipologik belgilarini aniqlash, tarjima imkoniyatlari va xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

o'zbek tilidagi "ma'naviyat" va rus tilidagi "духовность" arxisemali leksemalarni tizimlashtirish; semantik xususiyatlarini, munosabatlarini tahlil qilish;

o'zbek tilidagi "ma'naviyat" va rus tilidagi "духовность" arxisemali leksemalarning tipologik xususiyatlarini aniqlash;

o'zbek tilidagi "ma'naviyat" va rus tilidagi "духовность" arxisemali leksemalarni struktur-grammatik jihatdan tasniflash, uslubiy xususiyatlarini tavsiflash;

o'zbek tilidagi "ma'naviyat" va rus tilidagi "духовность" umumiy semali leksemalarning lug'atlarda berilish muammolarini o'rganish.

Tadqiqotning obyekti sifatida o'zbek tili izohli lug'atidagi "ma'naviyat" hamda rus tilining izohli lug'atlaridagi "духовность" umumiy semali leksemalar hamda ular ishtirokidagi kontekstlar tanlandi.

Tadqiqot predmetini o'zbek tilidagi "ma'naviyat" va rus tilidagi "духовность" umumiy semali leksemalarning semantik tipologiyasi, o'zaro tarjimasi va leksikografik talqini tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, chog'ishtirish metodlaridan, differensial-semantik, tipologik tavsiflash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

шароитида ўзбек тили ижтимоий-сиёсий лексикасининг тараққиёти. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – 23 б.

⁸ Тожиева Г. Ўзбек тили маънавий-маърифий лексикасининг мустақиллик йилларидағи тараққиёти ("миллий ғоя" атов бирликлари). Филол. фан. б. фалс. док. (PhD)...дисс.– Қарши, 2016. – 50 б.

⁹ Тожиева Г. Ўзбек тилини "тил ва маънавият муштараклиги" тамойили асосида тадқиқ қилиш масалалари. Филол. фан. д-ри (DSc) дисс. автореф. – Қарши, 2021. – 62 б.

¹⁰ Ахмедова М. Ўзбек тилидаги "маънавият" ва инглиз тилидаги "spirituality" умумий семали атов бирликлари типологияси. Филол. фан. б. фалс. док. (PhD)... дисс. автореф. – Бухоро, 2019. – 49 б.

¹¹ Yuldashev F. "Ma'naviyat" va "mafcura" leksemalarining integral va differensial xususiyatlari. O'zbek amaliy filologiyasi istiqbollarli // Respublika ilmiy-amaliy konferensiysi. – Toshkent, 2022.

¹² Фозиев С., Ибрагимова Г. Маънавият луғати. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007. –128 б.; Маънавият асосий тушунчалар изоҳли луғати. – Тошкент: Faafur Fulyom, 2013. – 760 б.

o‘zbek tilidagi “ma’naviyat” va rus tilidagi “духовность” umumiyligi semali leksemalarning struktur-semantik xususiyatlari ochib berilib, o‘zbek tilida “ma’naviyat” arxisemasini “axloq” va “ma’rifat” mikromaydoniga mansub leksemalar tashkil etishi, rus tilida “духовность” leksemasi tushunchalarining qorishiqlariga tarzda namoyon bo‘lishi isbotlangan;

o‘zbek va rus tillaridagi “axloq” mikromaydoni leksemalarining umumiyligi, o‘zaro muqobilligi, erkin tarjima qilinishi asoslangan va “ma’rifat” mikromaydoni leksemalarining struktur-semantik, tipologik jihatdan o‘ziga xosligi, milliy-madaniy belgilarga egaligi asoslangan;

o‘zbek tilidagi “ma’naviyat” arxisemali bir qator leksemalarning arab tiliga xos konsonantizm asosida yuzaga kelgani, baho semasi alohida leksik birliklar yordamida ifodalanishi, rus tilidagi “духовность” umumiyligi semali leksemalar asosan, tuzilishiga ko‘ra soddaligi va baho semasining grammatik vositalar yordamida ifodalanishi dalillangan;

o‘zbek tilidagi “ma’naviyat” va rus tilidagi “духовность” umumiyligi semali leksemalarning lug‘atlarda sinonimlar, noaniq so‘zlar (olmoshlar) yordamida izohlangani aniqlanib, leksemalarning ma’no qirralarini ilmiy dalillash orqali izohlanishi tushuncha mohiyatini to‘liq aks ettirishi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

tadqiqot natijalari sifatida shakllantirilgan o‘zbek va rus tillariga oid “ma’naviyat” / “духовность”ga oid leksemalar tizimi ta’lim jarayoni, o‘zbek tili korpuslari uchun lingvistik ta’minot sifatida xizmat qilishi dalillangan;

dissertatsiyada keltirilgan o‘zbek va rus tillaridagi “ma’naviyat”/ “духовность” arxisemali leksemalar semantikasiga doir tahlillar o‘zbek va rus tillariga oid darslik, qo‘llanmalar uchun nazariy ma’lumot va amaliy manba vazifasini bajarishi asoslab berilgan;

tadqiqot natijalari lingvokulturologiya, lingvoma’naviyatshunoslik muammolarini tadqiq qilishda nazariy ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiya natijalaridan leksik sath birliklarini semantik tahlil qilishda, struktur-grammatik jihatdan o‘rganishda, shuningdek lug‘atlardagi izoh va sharhlarni takomillashtirishda, korpuslar uchun ma’lumotlar bazasini shakllantirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo‘llangan metodlarning mavjud lingvistik nazariyalarga mosligi, muammoga oid ilmiy gipotezalar chog‘ishtirma tilshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganilganligi, misollarning ishonchli manbalardan olinganligi, har bir paragrafda qo‘yilgan muammo yuzasidan asoslangan ilmiy-nazariy xulosalar chiqarilganligi, “ma’naviyat” / “духовность” arxisemali leksemalarining tarjimasi va leksikografik talqini yuzasidan olingan natijalar vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya natijalarining ilmiy ahamiyati o‘zbek va rus tillariga oid “ma’naviyat” / “духовность” arxisemali leksemalarning tipologik belgilari aniqlanganida va mazkur tillarga xos lisoniy xususiyatlari tahlil qilinganida namoyon bo‘lishi, ilmiy xulosalar lingvoma’naviyatshunoslik masalalarini tadqiq etishda nazariy ahamiyat kasb etishi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, bakalavriat va magistratura ta’lim yo‘nalishlarida “Современный русский язык”, “Hozirgi zamon o‘zbek tili”, “Lingvokulturologiya”, “Kognitiv tilshunoslik”, “Leksikologiya”, “Stilistika” fanlari yuzasidan maxsus kurs, maxsus seminarlar o‘tishda manba va material vazifasini bajarishi, leksema semantikasiga doir amaliy mashg‘ulotlarda material bo‘lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekcha “ma’naviyat” va ruscha “духовность” arxisemali leksemalarning chog‘ishtirma tadqiqi mavzusida olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

o‘zbek va rus tillaridagi “ma’naviyat” / “духовность” arxisemali leksemalarning qo‘llanish chastotasi, semantik xususiyatlari, o‘zbek tilidagi ma’naviyatga oid arabcha o‘zlashmalarning semantik xususiyatlariga doir ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2020-2023-yillarda bajarilgan AM-F3-201908172 raqamli “O‘zbek tilining ta’limiy korpusini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 28-apreldagi 02-843-son ma’lumotnomasi). Natijada o‘zbek tilining ta’limiy korpusi “ma’naviyat” umumiyligi semali leksemalarning semantik tabiatiga, leksik sath birliklariaro iyerarxik va ideografik xususiyatlariga oid ma’lumotlar bazasi boyitilgan;

o‘zbek va rus tillaridagi “ma’naviyat” / “духовность” arxisemali leksemalarning struktur-grammatik modellaridan, leksemalar o‘rtasidagi munosabat ko‘rinishlariga oid xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023 yillarda bajarilgan PZ-202004165 raqamli “Umumiy o‘rta ta’limning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida og‘zaki va yozma nutqiy kompetensiyalarini rivojlantiruvchi elektron platforma yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 28-apreldagi 02-844-son ma’lumotnomasi). Natijada platforma “ma’naviyat” leksik-semantik guruhiiga mansub birliklar tarkibidagi struktur o‘zgarishlarning og‘zaki va yozma nutq me’yorlarini belgilashdagi ahamiyati, “ma’naviyat” arxisemali leksemalarning tipologiyasi, morfologik tarkibiga doir ma’lumotlar bilan to‘ldirilgan;

o‘zbek va rus tillaridagi “ma’naviyat” / “духовность” arxisemali leksemalarning til va madaniyatdagi o‘rni, qadriyatlarga oid izlanishlarda aks etganlik darjasini, tizim sifatida o‘rganish zarurligi, lug‘atlarda berilishi hamda yosh avlodni ma’naviy barkamol qilib tarbiyalashga qaratilgan sohalar uchun ilmiy-nazariy, amaliy manba vazifasini o‘tashi haqidagi tahlillardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” telekanalida namoyish etilgan “Munosabat”, “Xulosa o‘zingizdan” teleko‘rsatuvlari ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (“O‘zbekiston teleradiokanalı” Davlat muassasasining 2024-yil 25-iyundagi 02-15-783-son ma’lumotnomasi). Natijada mazkur teleko‘rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni takomillashgan hamda ilmiy dalillar bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni yuzasidan jami 18ta, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6ta, xorijiy jurnallarda 6ta ilmiy maqola nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanimanligi adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumi hajmi 140 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning bugungi kundagi dolzarbliги ta'kidlangan, muammoning o'r ganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqot maqsadi, vazifalari qayd etilgan, tadqiqot obyekti ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi bayon qilingan, olingan natjalarning ishonchliligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natjalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishiga oid ma'lumotlar keltirilgan.

I bob "**Jahon tilshunosligida leksik sathning tizim sifatidagi tadqiqi va mazmuniy maydon nazariyasi**" deb nomlangan.

1.1-§. "*Leksemalarning mazmuniy maydon asosida o'r ganilishi.* Tilshunoslik taraqqiyoti til birliklarining nutqdagi vazifasi, ijtimoiy mavqeyini talqin qilishga qaratilgan masalalar tadqiqi bilan bevosita aloqador. Bugungi kunda zamonaviy tilshunoslikda leksik birliklarning ma'nolarini yaxlit tizim asosida tahlil qilish, semantik munosabatlarni yoritish masalalari kun tartibiga qo'yilmoqda.

Jahon tilshunosligida leksemalarning semantik xususiyatlariga doir bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. A.A.Ufimseva lug'at sathini tizimli ravishda o'r ganish asoslarini yoritdi. Leksik birliklar o'rtasidagi umumi va farqli ma'no xususiyatlariga ko'ra birlik hosil qilishini asosladi¹³.

O'zbek tilshunosligida leksema, sema, leksema semantikasi masalalari dastavval Sh. Rahmatullayev, I.Qo'chqortoyev, R.Yunusov, M.Mirtojiyevlarning tadqiqotlarida yoritilgan¹⁴. Umumi sema, arxisema haqida birinchilardan bo'lib I.Qo'chqortoyev fikr bildirgan¹⁵. Olim arxisemani *komponent sema* deb atagan va ko'p ma'noli so'z sememalarini birlashtiruvchi sema sifatida baholagan.

Sh.Iskandarova leksemalarni mazmuniy maydon nazariyasi asosida tadqiq etishning bir qator afzalliklarini qayd etib, ideografik lug'atlar tuzishda lingvistik

¹³ Уфимцева А. Опыт изучения лексики как системы. – М.: Академия наук, 1962. – 288 с.

¹⁴ Раҳматуллаев Ш., Юнусов Р. Семемаларнинг семалар состави ва семантик боғланиш масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1974. -№1. – Б.51-53; Раҳматуллаев Ш. Лексик маънони компонентлаб таҳлил қилиш тажрибасидан // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1978. -№4. – Б.54-60; Қўчкортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. – Тошкент: Фан, 1977. –167 б.; Миртохиров М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2010. – 288 б.

¹⁵ Қўчкортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. – Тошкент: Фан, 1977. – 167 б.

asos, manba vazifasini o‘tashini ta’kidlaydi¹⁶. Zotan, nisbatan yangi, ijtimoiy xarakterga ega struktur-funksional tilshunoslik vakillari til birliklarini mazmuniy maydonlarga ajratish, maydon elementlari orasidagi hamda maydonlararo ma’no munosabatlarini aniqlash tamoyillarini ishlab chiqishdi¹⁷. N.Nishonova mazmuniy maydon nazariyasi haqidagi qarashlarni umumlashtirib, tahlil qildi va o‘zbek tilidagi “hayvon” arxisemali leksemalarni mazmuniy maydon asosida o‘rgandi¹⁸.

M.Mirtojiyev so‘zlarni ma’nolarga ko‘ra guruhashni tilshunoslikdagi ancha qadimgi usul sifatida baholaydi. Shu asosda ideografik lug‘atlar yuzaga kelganini qayd etadi. Semantik maydonlar nazariyasiga ma’noviy tarzda guruhashning dastlabki ko‘rinishlaridan biri sifatida yondashgan¹⁹. Aslida semantik maydon asosida guruhashni ancha oldingi davrlarga, qadimgi sharq lug‘atchiligiga bog‘lash to‘g‘riroqdir²⁰.

Y.Hamrayeva harakat-holat ifodalovchi so‘zlar tahlili misolida o‘zbek tilining ideografik lug‘atini tuzish tamoyillarini ishlab chiqdi. Tadqiqotda so‘zlarni alifbo tartibida emas, mavzu asosida tizimlashtirib berishning afzal jihatlari ko‘rsatilgan²¹.

A.Alikulov *izgirin, shabada, shamol, yel, garm sel, quyun, bo‘ron, dovul, girdibod, girdob, uyurma* kabi leksik birliklarni jamlab, ularni “yel-yog‘in” semasi asosida birlik hosil qiluvchi tizim sifatida tavsiflagan²². Sh.Safarov tushunchaning mantiqiy tafakkur birligi sifatida fikr yuritishning umumiyligi va zarur shakli ekanligini, o‘ziga xos hajm va mazmunga egaligini ta’kidlaydi²³. I.Ermatov jahon, turkiyshunosligi, o‘zbek tilshunosligidagi tadqiqotlarni o‘rganib, tilshunoslik terminlari o‘rtasidagi lug‘aviy-semantik munosabatlarning gipero-giponimik va ekvonimik turlarini tahlil qildi²⁴.

Semantik maydon, arxisema asosidagi tahlillar leksemalarning semantik tarkibini aniqlash imkonini beradi.

1.2-§. “*Ma’naviyatga oid tushunchalarning tizimli tadqiqi*”. Jahon tilshunosligida “ma’naviyat” arxisemali leksemalarning semantik xususiyatlariga doir bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, L.E.Korsakova ma’naviyatni inson va Xudoning birligi yoki muloqoti deb biladi²⁵. E.A.Stepanova ma’naviyat va diniy e’tiqodni bir-biriga qiyoslaydi: ma’naviyat uchun manba –

¹⁶ Искандарова Ш.Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони): Филол. фан. док. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – Б.42-43.

¹⁷ Қаранг: Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдизлари ва йўналишлари. – Тошкент: Таълим, 2008. – 176 б.

¹⁸ Нишонова Н. Ўзбек тилида “хайвон” архисемали лексемалар майдонининг мазмуний таҳлили. Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2000. – 120 б.

¹⁹ Миртожиев М. Ўзбек тили семиологияси. – Тошкент: Mumtoz soz, 2010. – Б.53-54.

²⁰ Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 153 б.

²¹ Ҳамраева Ё. Ўзбек тилининг идеографик лугатини тузиш тамоилилари (харакат ва ҳолат тушунчасини ифодаловчи сўзлар мисолида). Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2010. – Б.12.

²² Аликулов А. *Ел-ёғин* лугавий-маъновий гурухи (тизими, қўлланилиши ва лексикографик талқини). Филол. фан. номз....автореф. – Тошкент, 2011. – 22 б.

²³ Сафаров Ш. Семантика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2013. – Б.86.

²⁴ Эрматов И. Терминология тизимида гиперо-гипонимик ва эквонимик муносабатлар (тилшунослик терминлари мисолида). Филол.фан. д-ри (DSc)...дисс. – Тошкент, 2022. – 225 б.

²⁵ Корсакова Л. Духовность в христианско-универсальном аспекте православной культуры [Электронный ресурс]. URL: <https://nauchtrud.com/5698/2020082809182354688> (дата обращения: 01.06.2021).

insonning ichki tajribasi, diniy e'tiqod uchun esa tashqi dunyo deb hisoblaydi²⁶. S.V.Guzenina ma'naviyatni mentalitetning sinonimi, vatanparvarlikni esa bu mentalitetning zarur elementi sifatida ko'radi²⁷.

M.I.Drobjev fikricha, ma'naviyat mehnat jarayonida namoyon bo'ladi. Ma'naviyat dunyoni tadqiq qilishning eng yuqori darajasi sifatida belgilanadi²⁸. A.S.Xolmanskiy san'at ahli, ijodkorlar, yozuvchilar, rassomlar, bastakorlarning ma'naviy salohiyati ma'naviyat darajasini belgilaydi, deb hisoblaydi.²⁹ Rus tilida "духовность" / "ma'naviyat" arxisemasiga kiruvchi leksik birliklar belgi bildiruvchi leksemalar mavzusi ostida o'rganilgan.

T.Teliya fe'l-atvor bildiruvchi frazemalardagi konnotativ ma'nolar xususida to'xtalgan. Shu asosda lingvokulturologiyani markazi madaniyat fenomeni bo'lgan inson to'g'risidagi antroposentrik paradigmaga xos bo'lgan yutuqlar majmuasi sifatida talqin qilgan. Lingvokulturologiyaning mohiyati inson etnik genezisi hamda turli muloqot hududlarida jonli milliy tilning madaniyat va ma'naviyat bilan chambarchas bog'liqligida namoyon bo'lishini ta'kidlagan³⁰. G.Muhammadin nisbiy belgini ifodalashiga ko'ra tadqiq qilgan³¹. "Духовность" e'tiqod va axloq bilan bog'liq va ruhoniylar faoliyatiga oid tushunchani bildirgan³².

I.V.Kalugina «духовность» bir necha semantik maydonlarni qamrab olganini ta'kidlab, psixologik, diniy, madaniy, siyosiy va sotsial doiralarda qo'llanishini qayd etgan. «Духовность» leksemalarini 1800–2019 yillardagi rus tili konteksti misolida o'rgangan. Ikki yuz yil davomida «духовность» semantikasida o'zgarishlar kuzatilgani, ma'no torayishi yuz bergani, "diniy faoliyat doirasi" (сфера деятельности духовенства) semasi iste'moldan chiqqanini asoslab bergen. Leksemaning rus tili kontekstida ko'p ma'nolilik kasb etgani, tushunchalarni nisbiy tarzda ifodalovchi yaxlit birlikka aylanganini qayd etgan³³.

O'zbek tilshunosligida til va madaniyat mushtarakligiga doir qarashlar qadimgi yozma manbalarda uchraydi. Jumladan, "Devonu lug'otit turk" leksemalarni jamlagan lisoniy va ensiklopedik lug'atlarning xususiyatlarini o'zida mujassam etgan"³⁴. Ushbu nodir tarixiy yodgorlik turkiy xalqlar tilining ifodaviylik va tasviriylik imkoniyatini ko'rsatib beradi. Ushbu lug'atda "ma'naviyat" leksik-semantik maydonini tashkil etuvchi sof turkiy tildagi leksik

²⁶ Степанова Е. Новая духовность и старые религии // Религиоведение, 2011. – № 1. – С. 127-134.

²⁷ Гузенина С. Державность и народный патриотизм как фундаментальные составляющие российского менталитета // Вестник Тамбовского университета. Серия «Гуманитарные науки». 2012. -№2 (106). – С.28-33.

²⁸ Дробжев М. Духовность личности как главная составляющая системы непрерывного образования // Гаудеamus. 2006. Т.1. – № 9. –С.71-78.

²⁹ Холманик А. Реальная духовность [Электронный ресурс] // Мир науки. 2014. -№2 (4). URL: <https://mirnauki.com/PDF/11FILSMN214.pdf> (дата обращения: 01.06.2021).

³⁰ Телия В. Культурно-национальные коннотации фразеологизмы: От мировидения к миропониманию // Славянское языкознание. Докл. росс. делегации. – М., 1993. – С. 302-314.

³¹ Мухаммадин Г. Особенности качественно-характеризующих значений прилагательных в современном русском языке. – Ташкент, 1998. – 40 с.

³² Словарь русского языка XI-XVII вв. – М.: Наука, – С. 382

³³ Калугина И.В. Бытование лексемы «духовность» в русском языке //Филологические науки. Вопросы теории и практики, 2021.

³⁴ Хазиева А. Лексика словаря Махмуда Кашиги "Диван лугат ат-турк" в сравнении с современным башкирским языком. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Уфа, 2019. – С.6.

birliklarning lug‘aviy ma’nolari izohlangan. Inson fe'l-atvorlaridagi ijobiy xususiyatlarni ifodalashda bir qancha leksemalardan foydalanilgan. Masalan, “uyg‘oq, hushyor” ma’nosida *užuğ* leksemasi qo‘llangan. Bu leksema *užuğ er*, *užuğ köňülliük er* so‘zları bilan bog‘lanib, birikma hosil qilgan. “Odob, axloq, tarbiya” ma’nosida *erdäm* leksemasi keltirilgan: *Erdäm başı til.* – Odobning boshi til.

Aytish joizki, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari izohli lug‘at xarakteriga ega emas. Bunda muallif o‘z oldiga turkiy tildagi so‘zlarning arabcha tarjimalarini berishni maqsad qilgan. Biroq asli tarjima lug‘at hisoblangan ushbu asar turkiy til leksik sathining tipologik tadqiqi uchun yirik qomusiy manba hisoblanadi³⁵. Buyuk mutafakkirlarimiz iqtisodiyot va ma’naviyat uyg‘unligi, inson hayotining moddiy va ma’naviy qismlardan tashkil topishi, moddiyat va ma’naviyatning bir butunlikda qaralishi lozimligi haqida qimmatli fikrlar bildirishgan. Sharq mumtoz adabiyotida ma’naviyat va ma’rifat masalalari aforizmlar ko‘rinishida, ramzlar orqali va turli timsollar vositasida aks ettirilgan. Xususan, tasavvuf – insonning kamolga, Haqqa yetishish yo‘llari, usullari majmuasi sifatida yuzaga keldi. Uni poklanish maktabi ham deyish mumkin³⁶. Alisher Navoiy “Xamsa”si didaktik o‘gitlarga yo‘g‘rilgan falsafiy, teologik asarlar sirasiga kiradi. Sharq mumtoz adabiyotidagi axloq, e’tiqod haqidagi qarashlar zamonaviy mafkurada ham o‘z ifodasini topmoqda. G.Tojiyeva tadqiqotida dunyo tilshunosligida til va ma’naviyat mushtarakligi muammolari yechimi borasida izlanishlar olib borilayotganligi, til o‘rganishning milliy-ma’naviy taraqqiyotdagi o‘rni, tillarning semantik mazmuni, ko‘p madaniyatli jamiyatda madaniyatlararo muloqot masalalari, milliy xarakter va milliy ma’naviyatning shakllanishida tilning o‘rni ko‘rsatib berilgani ta’kidlangan. “Ma’naviyat” kategoriyasining *vijdon, muhabbat, farosat, fidoyilik, axloq, nafsni tiyish, samimiyat, takomillashuv* kabi tarkibiy qismlari, tayanch ma’naviy tushunchalari ajratilgan va izohlangan³⁷.

“Ma’naviyat” / “духовность” arxisemasi bir qator leksemalarning bir maydonga birlashuvi uchun asos bo‘lgan umumiy semadir. “Leksema tushunchani ifodalovchi til birligidir. Leksik ma’noli so‘zlar differensial-semantik metodning tekshirish obyekti sifatida *leksema* deb nomlanadi. Leksemalarning ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish turkumiga mansubligi sememani yoritishga xizmat qiladi³⁸”. Bu o‘rinda M. Mirtojiyev leksemalarning narsa-buyum, belgi-xususiyat, harakat-holat, miqdor haqida axborot berishiga ishora qilgan. Tilshunoslikda differensial-semantik metodning keyingi vaqtida faol qo‘llanayotganligini qayd etib, lug‘aviy birlik holatida so‘z *leksema*, leksik ma’no *semema*, leksik ma’noning komponenti *sema* deb qo‘llanishini ta’kidlagan. Keyingi talqinlarida semani “belgi” sifatida izohlash to‘g‘ri ekanligini aytib o‘tgan.³⁹ Olim arxisema haqidagi ilmiy qarashlarning deyarli bir xilligini ta’kidlab, V.A.Gak⁴⁰, L.A.Novikovning⁴¹

³⁵ Махмуд Кошгариј. Девону луготит турк (масъул муҳаррир С.Муталлибов). – Тошкент: Фан, 1960. – Б.18.

³⁶ Вохидов Р., Неъматов Ҳ, Махмудов М. Сўз бағридаги маърифат. – Тошкент: Ёзувчи, 2001. – Б.18.

³⁷ Тожиева Г. Ўзбек тилини “тил ва маънавият муштараклиги” тамойили асосида тадқиқ қилиш масалалари. Филол. фан. д-ри (DSc) дисс. автореф. – Қарши, 2021. – Б.62.

³⁸ Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. –Тошкент: Mumtoz soz, 2010. – Б.27.

³⁹ Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. –Тошкент: Mumtoz soz, 2010. – Б.49.

⁴⁰ Гак В.Г. Сопоставительная лексикология. –М.:МО,1977. –С.14.

fikrlarini umumlashtirib, arxisemaning referentlar uchun umumiyl bo‘lgan belgi (xususiyatni) aks ettirishini qayd etadi⁴². Arxisemani bir semantik maydonga mansub leksemalar sememasi uchun umumiyl bo‘lgan, ularni birlashtiruvchi sema sifatida ta’riflagan⁴³.

“Ma’naviyat” / “духовность” arxisemali leksemalar madaniy taraqqiyot natijasidagi konseptosferaning lisoniy ifodalari sifatida yuzaga keldi.

II bob “O‘zbek va rus tillaridagi “ma’naviyat” /“духовность” arxisemali leksemalarning tipologiyasi, genetik asoslari, struktur-semantik xususiyatlari”ga bag‘ishlangan.

2.1-§. “O‘zbek va rus tillaridagi “ma’naviyat”/ “духовность” arxisemali leksemalar mazmuniy maydonining genetik asoslari”. “Ma’naviyat” kognitiv maydonining markaziy qismidan “axloq” va “ma’rifat” tushunchalari o‘rin olgan.

Axloq arabcha so‘zdan olingan bo‘lib “muomala, xatti-harakat odobi” degan ma’noni bildiradi. Izohli lug‘atda *axloq* – ma’naviyatning o‘zagi sifatida izohlangan (O‘TIL, I, 121). Etimologik lug‘atda *axloq* so‘zi ko‘plik shaklida bo‘lib, *xulq* so‘zi anglatadigan ma’noda ishlatiladi (O‘TEL, II, 54).

Ma’rifat arabcha so‘zdan olingan bo‘lib “bilim, fan, ma’lumot, tanishish “degan ma’noni bildiradi: ta’lim-tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, diniy, falsafiy g‘oyalar asosida kishilarning ong-bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan faoliyat; tasavvufda har bir sufiy ruhiy kamolotga erishish yo‘lida bosib o‘tadigan bosqich (maqom)laridan biri. (O‘TIL, II, 567). Ma’rifiy kamolotga yetishini istab, xotin-qizlarga ism sifatida ham qo‘yiladi. O‘zbek tilining etimologik lug‘atida bu so‘zning kelib chiqishi arabcha *ma’rifat (un)* so‘ziga bog‘langan. Bu so‘z asli “bildi, tanidi” ma’nosini anglatuvchi *arafa* fe’lidan shakllangan. O‘zbek tilida “o‘qitish, tarbiyalash, bilim berish” ma’nosini anglatadi (O‘TEL, II, 255).

Ma’lumki, “til bevosita kuzatishda berilmagan, u jamiyat a’zolarining ongida mavjud bo‘lib, ularning barchasi uchun tayyor, umumiyl, majburiy bo‘lgan, fikrni shakllantirish va uni ifodalashga xizmat qiladigan birliklar va ularning o‘zaro munosabatlari haqidagi tasavvurlar yig‘indisi o‘laroq qaraladi. Nutq tilning namoyon bo‘lishi, ro‘yobga chiqish, voqelanish shakli bo‘lib, bevosita kuzatishda berilgan, moddiy (tabiiy, fizik) shaklga egadir”⁴⁴. Lug‘atlardagi “ma’naviyat” paradigmasi tarkibiy elementlarining izohlarini tahlil etar ekanmiz, ularning lug‘aviy ma’nolari orasida til va nutq hodisalarining xususiyatlaridan kelib chiqadigan semantik munosabatlar mavjudligi ko‘rinadi. “Axloq” va “ma’rifat” oraliq semantik guruhlari uzvlari *ma’naviyat* umumiyl ma’nosini anglatsa-da, differensial semalari bilan farqlanadi: *axloq*, *xulq* yashash, ijtimoy voqelik tajribasi asosida orttirilgan muloqot odati hisoblansa, ma’rifat ilm olish orqali shakllanadi. “Ma’rifat” semali birliklarni bir guruhgaga oid bo‘lgani sababli, uyadosh va ma’lum darajada o‘zaro ma’nodosh deb hisoblash mumkin emas – har bir uzb alohida mustaqil tushunchani ifodalaydi. Zero, “darajali ziddiyat eng kamida uchta til birligi orasida bo‘ladi va bu birliklar muayyan bir belgi-

⁴¹ Новиков Л.А. Семантика русского языка. –М.:Высшая школа, 1982. –С. 117.


⁴² Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. –Тошкент: Mumtoz so‘z, 2010. –Б.52.

⁴³ Миртожиев М. Кўрсатилган манба.–Б.52.

⁴⁴ Нематов X, Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б.7.

xususiyatning darajasiga – oz-ko‘pligiga ko‘ra o‘zaro qarama-qarshi qo‘yiladi”⁴⁵. “Ma’rifat” guruhidagi leksema va tushunchalar esa o‘zaro darajali ziddiyat munosabatiga kirishmaydi. Bundan kelib chiqadiki, ushbu so‘zlar bir-biriga qarama-qarshi, ma’nodosh bo‘la oladi. Undagi vositalarni daraja qatorida emas, iyerarxik tartibda tabaqalash o‘rinli, zero, ular bir-birini taqozo qiluvchi mantiqiy zanjirni tashkil qiladi.

Quyida “ma’naviyat” semantik maydonining ideografik xaritasini taqdim etamiz va undagi tartibni asoslaymiz:



Ko‘pincha “ma’naviyat” va “ma’rifat” atamalari o‘zaro teng maqomga ega tushuncha sifatida qaraladi. Ba’zan ularni bir ma’noning turli qirrasini ifodalovchi leksemalar sifatida qo‘llash holatlari kuzatiladi. Biroq biz *ma’rifat* terminini *ma’naviyat* semantik maydonini tashkil etuvchi uzb o‘laroq joylashtirdik. Ayni shu nuqtada “ma’naviyat” semantik maydonining sof sharqona xarakteri namoyon bo‘ladi. Zero, “ma’rifat” tushunchasi islom dini, madaniyati va ushbu din falsafasi bilan chambarchas bog‘liq – ushbu uznning barcha tarkibiy qismlari boshqa din vakillari uchun mavhumligicha qoladi. *Axloq* esa bunday xoslik xarakteriga ega emas, aksariyat millat va elatlar uchun umumiy bo‘lgan tushunchalardan tashkil topadi. Leksik jihatdan ham “axloq” semasi tarkibiga kiruvchi elementlar turli tilda o‘z muqobiliga ega deyish mumkin.

<i>adolat</i>	<i>kamtarlik</i>	<i>nafosat</i>
<i>ahillik</i>	<i>qadr-qimmat</i>	<i>odamiylik</i>
<i>vafodorlik</i>	<i>himmat</i>	<i>odob</i>
<i>vijdon</i>	<i>qanoat</i>	<i>or-nomus</i>
<i>jonkuyarlik</i>	<i>mas’uliyat</i>	<i>rostgo’ylik</i>
<i>insof</i>	<i>mehribonlik</i>	<i>sadoqat</i>
<i>intizom</i>	<i>mehnatkashlik</i>	<i>samimiyat</i>
<i>saxiylik</i>	<i>talabchanlik</i>	<i>farosat</i>
<i>fidoyilik</i>	<i>hayo</i>	<i>halimlik</i>
<i>halollik</i>	<i>hurmat</i>	<i>xushmuomalalik</i>
<i>ezgulik</i>	<i>yaxshilik</i>	<i>itoat</i>

⁴⁵ Нематов X, Расулов Р. Кўрсатилган асар. – Б.17.

MA'RIFAT

<i>haq</i>	<i>zakovat</i>	<i>oriflik</i>
<i>ruh</i>	<i>sabr</i>	<i>kalom</i>
<i>komillik</i>	<i>e'tiqod</i>	<i>iroda</i>
<i>e'tiqod</i>	<i>ishq</i>	<i>borliq</i>
<i>poklik</i>	<i>qalb</i>	<i>abadiyat</i>
<i>zehn</i>	<i>takvin</i>	<i>toliblik</i>
<i>tafakkur</i>	<i>yaratuvchanlik</i>	<i>ijod</i>
<i>ilm</i>	<i>shijoat</i>	<i>donishmandlik</i>

“Ma’naviyat” leksik-semantik maydon sifatida ikki yirik guruhgaga – *axloq* va *ma'rifatga* bo‘linib, har bir guruhning tarkibiy qismi asosiy tushunchalar vositasida shakllantirildi. Bu leksik birliklar ijobiy va salbiy baho nuqtayi nazaridan farqlanadi.

2.2-§. “O‘zbek tilidagi “ma’naviyat” arxisemali leksemalarning semantik xususiyatlari”. “Ma’naviyat” arxisemali leksemalarning ikki yirik mikromaydonga birlashishi “tizim ichida tizim” tamoyilini ifoda etadi. *Axloq* olamning umumiylisi tasviri bo‘lagi – axloqiy kategoriylar, tushuncha va konseptlarni rus tilidan o‘zbek tiliga o‘girish qiyinchilik tug‘dirmaydi. Ushbu leksemalar ko‘pgina tillar uchun umumiyydir, rus va o‘zbek tillaridagi parallel “axloq” umumiylisi leksemalar buning yaqqol isbotidir. “Ma’rifat” atov birliklari esa to‘laqonli leksik universaliyalar bo‘la olmaydi. Barcha tillarda umumiylisi bo‘lgan ong faoliyatiga oid so‘zlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri mutanosibi bilan tarjima qilish kerak. Tillarda milliy o‘ziga xos lisoniy tasvir elementi bo‘lgan “e’tiqod” ma’no guruhi esa tarjimada realiya ko‘rinishida izoh bilan berilishi yoki semantik jihatdan yaqin muqobil vositasida ifodalaniishi lozim.

“Ma’naviyat” kategoriyasining asosiy tushunchalaridan biri “axloq” semali leksemalar bo‘lib, “axloq” semasini ifodalaydigan so‘zlar ijtimoiy munosabatlar asosida yuzaga chiqadigan belgilarni jamlaydi. Ya’ni insonning axloqi boshqa bir insonga, atrof muhitga bo‘lgan munosabatida gavdalaniadi. Semantik ko‘lami chegaralangan so‘zlar aksariyat hollarda antonimik aloqaga kirishadi. Shu boisdan “axloq” semali so‘zlar ana shunday ziddiyat maydoni bilan parallel turadi. Gipersemaning ikkinchi qutbi bo‘lgan “ma’rifat” esa zohiriy tarzda namoyon bo‘lmaydi, ya’ni insonning ma’rifati uning xulqi, axloqida voqelanadi. Mikromaydon tarkibidagi *kamolot*, *ruhiyat*, *fitrat* kabi so‘zlar tushunish qiyin bo‘lgan murakkab yaxlitlikni hosil qiladi. Shuning uchun “ma’rifat” ma’nosini ifodalaydigan so‘zlarning ma’no ko‘lami juda keng, chegaralari noma’lum leksik birliklar bo‘lib qoladi. Bunday mavhumlik maydon tarkibidagi barcha leksemalar ham ma’no jihatidan bir-biriga mutanosib bo‘lavermasligini anglatadi. *Komil inson* birikmasiga qarama-qarshi aniq bir zid ma’noli birikmani qo‘yib bo‘lmaydi. Kimdir bunga qarshi *tuban inson* desa, boshqa birov yovuz *inson* degan birikmadan anglashiladigan ma’noni tushunadi. Ko‘rinadiki, *komillikka* antonim tanlashda har bir kishining komillik haqidagi tasavvuridan kelib chiqib yondashiladi. Bu

mikromaydon tizimidagi leksemalar o‘zaro tizimli ma’no munosabatiga kirishmasligi bilan “axloq” ma’no turidan farqlanadi.

“Axloq” va “ma’rifat” mikromaydoni semantik xususiyatlari ikki xil munosabatni – muqobil va dizyunktiv ziddiyatni⁴⁶ namoyon etadi. “Axloq” va “ma’rifat” leksemalarining farqlovchi semalari sifatida quyidagilar keltirildi:

1. “Axloq” va “ma’rifat” tushunchalari shakllanish vaqtin, zamoniga ko‘ra farqlanadi: axloqiy fazilatlar insonning tug‘ilishi bilan egallana borsa, ma’rifat aqliy qobiliyati, ong rivojlangandan keyin egallanadigan qarashlar, bilimlar majmuyini ifoda etadi.

2. “Axloq” va “ma’rifat” tushunchalari shakllanish makoniga ko‘ra ham farqlanadi. Axloq, asosan, oila muhitida, ma’rifat bilim maskanlarida, muassasalarda hosil qilinadi.

3. “Axloq” shaxsning fe’l-atvori, fazilati, xislatlarini anglatsa, ma’rifat bilimi, idrokini aks ettiradi.

O‘zbek tilida “ma’naviyat” arxisemali bir qator leksemalar arabcha konsonantizm asosida o‘zakdoshlik hosil qiladi: *sadoqat, sadoqatli, sodiq, sidqidildan; xulq-axloq; ma’rifat-maorif; muxlis-xolis-ixlos*.

2.3-§. “Rus tilidagi духовность / “ma’naviyat” arxisemali leksemalarning semantik xususiyatlari”. Rus tilidagi ijobjiy fe’l-atvor (положительное качество) konseptini ifodalaydigan leksemalar quyidagilar: *добрый, милый, смелый, доблестный, отважный, толковый, стойкий, мудрый, умный, благородный, красноречивый, бесстрашный, благоверный, благоразумный*. Добрый leksemasi badiiy matnlarda shaxs fe’l-atvorining ijobjiy xislatlarini anglatadi. 1. *Добрый* – ma’naviy ma’noda: “yaxshi, halol va foydali narsa, inson, fuqaro, oila boshlig‘ining burchi talab qiladigan hamma narsa”. Shaxs haqida –inson qalbining ijobjiy fazilatlari – “ishchan, bilimdon, mohir, mehnatsevar, xizmatkor, rostgo‘y, halol” ma’nolarida. 2. Yaxshilikni sevuvchi, yaxshilik qiladigan, yaxshilikka moyil. 3. Yumshoq ko‘ngilli, rahmdil, ba’zan “aqli va irodasi zaif”. 4. “To‘g‘ri fe’l, sodda fikrli, xayrixoh” kabi ma’nolarda izohlangan⁴⁷.

Rus tilidagi “ma’naviyat” semali so‘zlar turli xil yondashuv asosida izohlangan. Masalan, *добросовестный, честный, терпеливый, справедливость, стеснительный* kabi so‘zlar izohi ushbu leksemalarning boshqa so‘zshakllaridan foydalangan holda tuzilgan. Стойкий, храбрость leksemalari izohida esa so‘zshakllar bilan bir qatorda sinonimlar ham keltirilgan. Biroq bu so‘zlar va leksema bir-biriga qay darajada ma’nodosh ekanligi haqida ma’lumot berilmaydi. Shunchaki sinonimlarni sanab o‘tish esa so‘zning ma’no mohiyatini ochib bermaydi. Zero, so‘z mohiyati, ayniqsa, mavhum tushunchalar ma’nosini yondosh elementlar asosidagi axborot ko‘rinishida shakllantirilishi lozim. Leksema ma’nosini undagi tushuncha bilan bog‘liq vaziyat, shaxs, munosabat va boshqa yondosh omillar vositasida izohlanadi. Leksema ma’nosiga aloqador vaziyatlar tasviri orqali ma’no haqida tasavvur hosil qilinadi⁴⁸. Bunday yondashuv abstrakt

⁴⁶ Карапулов Ю. Общая и русская идеография. – М.: Наука, 1976. – С.166-108.

⁴⁷ Даль В.Толковый словарь русского языка. – М.: АСТ. 2004. – С.257.

⁴⁸ Апресян Ю. Типы лексикографической информации об означающем лексемы. – М.: Изд-во МГУ, 1995. – 266 с.

yoki aniq bo‘lsa-da keng ma’no ko‘lamiga ega leksemalarni izohlashda qo‘l keladi. Zamonaviy leksikografiyada bu talqin situativ izoh deb nomlanadi⁴⁹.

Rus tilida fe'l-atvor ma'noli leksemalarining ma'no qirralari ham badiiy matnda o‘z ifodasini topadi. Masalan, *xarakter* so‘zi o‘zbek tilida ham qo‘llanadi: *xarakter – yun.* charakter “farqlanuvchi xususiyat, belgi” (O‘TIL, IV, 385). Rus tilida *xarakter* leksemasining quyidagi ma'nolari aks etadi: 1) xarakter “temperament, mijoz, tabiiy belgi-xususiyat” ma'nosini ifodalaydi; 2) “fe'l-atvor, axloq” ma'nosini bildiradi; 3) *xarakter* badiiy asar qahramoni, “obraz” ma'nosida qo‘llanadi; 4) *xarakter* “xususiyat, yo‘nalish” ma'nosini anglatadi. *Рыцарский характер, анархистский характер, консульский характер, взрывчато-опасный характер, буйный характер* birikmalari rus tilidagi *xarakter* leksemasning lisoniy-madaniy belgilarini yoritishga xizmat qiladi.

“Ma’naviyat” leksik-semantik guruhidagi so‘zlar izohida yagona yondashuv, talqin prinsipi ishlab chiqilmagan. Rus tili izohli lug‘atlarida guruhdagi ba’zi elementlar ma’nodoshlar vositasida, boshqalari so‘zshakllarini izohga kiritish orqali talqin qilinadi.

2.4-§. “O‘zbek va rus tillaridagi “ma’naviyat” / “духовность” arxisemali leksemalar mazmuniy maydonining semantik munosabatiga ko‘ra tahlili”.

“Ma’naviyat” bu summativ ochiq tizim, uning tarkibi muntazam boyib, elementlari o‘zgarib yoki yangilanib borishi mumkin. Ularning tizim tarkibidagi o‘rni, izohi va tarjimasi maydonni tashkil etuvchi mavjud vositalar lug‘aviy ma’nosidagi tafovutlarni ilg‘ash, ularning ma’no chegaralarini va leksik qiymatini anglashni talab etadi. “Ma’naviyat” arxisemali leksemalarning semantik xususiyatlari, semalar tarkibi leksik birliklar o‘rtasidagi sinonimlik, antonimlik, gipo-giperonimik munosabatlar tahlili orqali kuzatiladi. “Ma’naviyat” arxisemasiga ega elementlarning izohini takomillashtirish uchun leksemalar orasidagi graduonimik munosabatlarga oydinlik kiritish talab etiladi. Ma’lumki, graduonimik munosabatlar bir qarashda sinonimiyanı eslatsa-da, ushbu ikki munosabat orasida tafovut mavjud. So‘zlar semik aynanlik prinsipiga ko‘ra sinonim bo‘lgani holda, leksemalar orasidagi darajalanish ulardagi ma’no farqlari asosida yuz beradi.⁵⁰ Graduonimiya umumiyligi semaga ega so‘zlar orasida ma’lum bir belgining ortib borishiga ko‘ra tuziladi. O‘z tarkibida ot, sifat, fe'l, ravish kabi mustaqil so‘z turkumlariga oid elementlarni qamrab oluvchi “ma’naviyat” leksik-semantik maydoni ham murakkablik belgisining ortib borishiga ko‘ra darajalanishi mumkin. Masalan, murakkablik darajasining ortib borishi, quyidan yuqoriga ilgarilashiga ko‘ra “ma’naviyat” umumiyligi semasiga ega leksemalar mazmunan “axloq” va “ma’rifat” ma’nolariga tasniflanishi hamda har bir ma’no guruhi tarkibidagi elementlar quyidagicha darajalanishi mumkin: *aqli – dono – zukko – donishmand; dindor – taqvodor – imonli – e’tiqodli; og‘ir – bosiq – vazmin – salobatli; odobsiz – surbet – axloqsiz; kekkaygan – kibrli – mag‘rur.*

⁴⁹ Апресян Ю. Правила взаимодействия значений и словарь // Русский язык в научном освещении. – М., 2005. – № 1; Гак В. О некоторых закономерностях развития лексикографии // Актуальные проблемы учебной лексикографии. – М., 1977.

⁵⁰ Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. – Тошкент: Фан, 1997. – 130 б.

O‘zbek tilida “ma’naviyat” arxisemali leksemalardagi darajalanish leksik vositalar orqali ham ifodalanadi: *haqiqiy donishmand*, *haqiqiqy taqvodor*, *juda surbet*.

Ma’naviyat atov birliklarining semik darajalanish qatorlarini yuqoridagidek belgining murakkabligi ortib borishiga ko‘ra tuzish ushbu leksik birliklar tarjimasida ham zarur bo‘ladi.

